



**“O‘ZTRANSGAZ” AKSIYADORLIK JAMIYATI
BUYRUG‘I**

2026 yil 20 may
63-son

Jamiyatda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni barvaqt aniqlash va ularning oldini olish hamda murojaatlarni samarali ko‘rib chiqishni ta‘minlash maqsadida qisqa ishonch telefon raqamini joriy etish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”, “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”, “Shaxsga doir ma‘lumotlar to‘g‘risida”, “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6013-sonli, PF-6257-sonli hamda 2025-yil 30-dekabrda PF-270-sonli farmonlari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining 2025-yil 25-noyabrda 03-18/7867-sonli taqdimnomasida ko‘rsatilgan talablar ijrosini ta‘minlash maqsadida,

BUYURAMAN:

1. “O‘ztransgaz” aksiyadorlik jamiyati (keyingi o‘rinlarda – Jamiyat) hamda uning tarkibiy tuzilmalarida korrupsiyaga qarshi kurash tizimini takomillashtirish, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini qabul qilish, ularni o‘z vaqtida ko‘rib chiqish hamda ular bo‘yicha qonuniy choralar ko‘rilishini ta‘minlash maqsadida Komplayens-nazorat bo‘limining “1852” qisqa ishonch telefon raqami ishga tushirilgani ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. “1852” qisqa ishonch telefon raqami bo‘yicha mas‘uliyat Komplayens-nazorat bo‘limi bosh mutaxassisiga yuklatilsin.

“1852” qisqa ishonch telefon raqami orqali kelib tushgan murojaatlar Jamiyat ish tartibidan kelib chiqqan holda haftaning dushanba–juma kunlari soat 09:00 dan 18:00 gacha qabul qilinishi belgilansin (qonunchilikda belgilangan alohida holatlar bundan mustasno).

Shuningdek, mazkur yo‘nalish uchun mas‘ul xodim odob-axloq qoidalariga rioya etishi, muloqot madaniyati hamda axborot xavfsizligi talablariga qat‘iy amal qilishi ta‘minlansin.

“1852” qisqa ishonch telefon raqami orqali kelib tushgan murojaatlar “O‘ztransgaz” AJ va uning tarkibiy tuzilmalariga aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish Reglamentiga asosan amalga oshirilishini ta‘minlasin.

3. Ishlarni boshqarish bo‘limi (Islamov)ga “1852” qisqa ishonch telefon raqamini keng targ‘ib qilish maqsadida bukletlar, bannerlar tayyorlash va Jamiyat binosida joylashtirish vazifasi yuklatilsin.

4. Axborot texnologiyalari bo‘limi (Sultanov) tomonidan Jamiyatning rasmiy veb-saytida, shuningdek, boshqa axborot resurslarida (ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalar hamda raqamli axborot stendlari) Komplayens-nazorat bo‘limi tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlarning keng yoritilishi ta’minlansin.

Jamiyat Komplayens-nazorat bo‘limining “1852” qisqa ishonch telefon raqami uzluksiz ishchi holatda bo‘lishi, shuningdek, ish vaqtdan tashqari paytda avtomatik javob berish yoki ovozli xabar qoldirish imkoniyati sozlanishi ta’minlansin.

5. Jamiyatning tarkibiy tuzilmalari (MGQBlar, GYOSIlar, “Urganchtransgaz” UK, “Transgazinjining” MChJ, “Transgazmaxsusqurilish” AJ)ga ichki va tashqi axborot tarqatish tizimlari orqali (ijtimoiy tarmoqlardagi saxifalar, axborot stendlar, bukletlar) Komplayens-nazorat bo‘limi ishonch telefon raqamining targ‘iboti amalga oshirilishi ta’minlasin.

6. Komplayens-nazorat bo‘limi (Ismatov) mazkur yo‘nalish uchun mas’ul xodimlar tomonidan “1852” qisqa ishonch telefon raqami faoliyati ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

7. Devonxona (Kamilova) mazkur buyruqning ijroiya apparatining barcha departamentlari va mustaqil bo‘limlariga, shuningdek, jamiyatning barcha tarkibiy tuzilmalariga o‘z vaqtida yetkazilishini ta’minlasin.

8. Mazkur buyruqning ijrosini ijrosi ustidan nazoratni o‘z zimmamda qoldiraman.

Boshqaruv raisi v.v.b.



M.N Raxmonov

BDC5448

BDC5448